

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIJY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI

TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



O'ZBEK TILI TARIXI

fanining ishchi o'quv dasturi

Bilim sohasi:	100 000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	110 000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5111200 – O'zbek tili va adabiyoti (kechki)

2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

-O'zbek tili tarixi, uning taraqqiyot bosqichlari, til tarixida sodir bo'lgan fonetik, leksik, grammatik o'zgarishlar, til sathlarining til tarixida voqelanishi, qadimgi yozma yodgorliklar va mumtoz manbalarning til xususiyatlari borasida dastlabki bilimlarga;

-ko'k turk yozuvi bitiktoshlari, qadimgi turk-moniy yozma yodgorliklari, turk-budda dimiy-falsafiy asarlari va ularning til xususiyatlari, O'rta Osiyo xalqlari yozuvi tarixi, arab yozuvi va uning joriy qilinishi haqida maqsadli qo'llash ko'nikmalariga;

-o'zbek tili tarixiga doir yozma manbalarni tahlil qilish, so'zlarni etimologik jihatdan qaysi qatlarga (o'z va o'zlashgan) oidligini aniqlash malakalariga ega bo'lishi lozim.

3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Mazkur fan bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilaotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

4. TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI

Talabalarining bilimni baholash tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazorat: O'tilgan mavzular asosida shaklda o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat: Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha shaklda o'tkaziladi.

Izoh: Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 marta gacha o'tkazilishi mumkin.

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Fan/modul kodi 300.1.O.TT5M	Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili o'zbek	Ishlab chiqilgan o'quv yili 2022/2023							
Semestr	Har bir semestrda modulning nomi	ECTS - kreditlar	Haftalik dars soatlari		O'quv mashg'ulotlari (soat)			Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
			Jami:	Ma'ruza	seminar	amaliy	Laboratoriya			
5	O'zbek tili tarixi	5	4	60	14	30	16	0	90	150
	Jami:	5	4	60	14	30	16	0	90	150

1. FANNING MAZMUNI

"O'zbek tili tarixi" fani o'zbek tilining bir necha yuz yillik shakllanish va taraqqiyot dinamikasini kuzatish, davrlar osha yetib kelgan qo'lyozma manbalar va ularning mavjud nashrlaridagi ashyoviy materiallarga suvangan holda fonetik, morfologik, leksik hamda sintaktik xususiyatlari haqida bilim berish vazifasini bajaradi.

Fanni o'qitishdan maqsad – tarixiy tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalarini tahlil qilish, o'zbek tili tarixini davrlashtirish masalasiga munosabat bildirish, eski turkiy adabiy til va uning yodgorliklarini tavsiflash, eski o'zbek adabiy tili va shu tilda bitilgan yozma manbalarni tahlil qilish, o'zbek tilining fonetik, leksik, grammatik taraqqiyotiga doir ma'lumotlarni umumlashtirish, o'zbek adabiy tilining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, o'zbek adabiy tilining qardosh turkiy tillar bilan munosabatini faktik material asosida yoritish ilmiy-nazariy ma'lumot berishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantirish, ta'lim oluvchilarda qayd etilgan masalalar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

"O'zbek tili tarixi" fanining nazariy asoslari tilning amaliy-funksional qo'llanishida yuzaga chiqadigan xususiyatlarini o'rganishda muhim o'rinni tutadi. Til egalarini til birliklaridan nutqiy faoliyat jarayonida o'rinni, maqsadga muvofiq tarzda foydalanish, nutqning samaradorligiga erishishga o'rgatishda hamda ularning savodxonligi darajasini o'stirishda ham fanning ahamiyati katta.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

2. Talabalarining bilimi baholash mezonlari:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho**;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho**;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **2 (qoniqsiz) baho** bilan baholanadi.

5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

5-SEMESTR

1. Ma'ruza mashg'ulotlari

№	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Fanning predmeti, maqsad va vazifalari. Qadimgi turkiy obidalarining topilishi, o'qilishi.	Qadimgi obidalarining yaratilish tarixi, topilishi, ularning fanga ma'lum qilinishi, qadimgi turkiy tilning fonetik xususiyatlari haqida qisqacha gapiriladi.	2
2.	Qadimgi turkiy til fonetikasi, leksikasi, morfologiyasi, sintaksisi.	Qadimgi turkiy tildagi gap qurilishi, soda va qo'shma gap shakllari haqida so'z yuritiladi.	2
3	Eski turkiy va eski o'zbek tilning fonetikasi, leksikasi, morfologiyasi va sintaksisi.	Eski turkiy va eski o'zbek tilning fonetik xususiyatlari qadimgi turkiy tilga qiyoslangan holda tushuntiriladi.	2
4	O'zbek xalqi va tilining nomlanish tarixi	O'zbek xalqining nomlanishi, tart, turk, o'zbek so'zlarining kelib chiqishi o'rganiladi.	2

5	Mahmud Koshg'ariy – turkiy tillarni qiyosiy o'rganish metodining asoschisi “Qutad’u bilig” va Hiybatul haqoyiq asarlarining tilshunoslikda turgan o'ri va ilmiy o'rganilishi	«Devoni-lug'otit turk» asarining ahamiyati yoritiladi. «Qutad’u bilig» Hiybatul haqoyiq asarlarining ahamiyati yoritiladi.	2
6	Alisher Navoiy-o'zbek adabiy tilini mumtozlik darajasiga ko'targan siymo. Alisher Navoiy, Bobur, Muhammad Solih asarlarining til xususiyatlari.	Alisher Navoiy o'zbek adabiy tilining asoschisi. Boburnoma va Shayboniynoma asarlari o'zaro taqqoslanadi.	2
7	XVI-XIX asrlar o'zbek adabiy tili. Adabiy tilning XX asrdan keying takomili. Hozirgi o'zbek adabiy tili	Jadidchilik harakati, ular yaratgan asarlar o'rganiladi.	2
Jami:			14 s.

2. Amaliy mashg'ulotlar

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Qadimgi turkiy til davri va uning manbalari	O'rxun-Enasoy yodgorliklari va boshqa yodgorliklar haqida so'z boradi.	2
2	Qadimgi turkiy til fonetikasi va leksikasi. Qadimgi turkiy tilda so'z turkumlari	Qadimgi turkiy til tovush tizimi yoritiladi. Qadimgi turkiy tildagi so'z turkumlari haqida ilmiy manbalar tadqiq etiladi.	2
3	Eski turkiy til leksikasi. Eski o'zbek tili fonetikasi, leksikasi va morfologiyasi. Eski o'zbek tili sintaksisi. So'z birikmasi. Gap bo'laklari	Eski turkiy til leksikasi manbalar misolida tahlil etiladi. Eski o'zbek tili tovush tizimi, leksik xususiyatlari va morfologiyasi o'rganiladi. Eski o'zbek tildagi gap qurilish qo'llari tahlil etiladi.	2
4	Turk, chig'atoy, tart, o'zbek atamalarining qo'llanilish tarixi va ilmiy asoslanishi	Ushbu atamalar kelib chiqishi va asoslari haqida fikr yuritiladi.	2
5	O'zbek adabiy tilining XIV asrdagi taraqqiyoti. Eski o'zbek adabiy tili rivojida Navoiygacha ijod qilgan turkiy y shoirilarning xizmatlari	XIV asrdagi manbalar misolida o'zbek tilining o'sha davrdagi taraqqiyoti belgilanadi. Navoiygacha bo'lgan ijodkorlar asarlarining turkiy til ravnaqiga qo'shgan xizmatlari tahlil qilinadi.	2

6	Arab, fors-tojik va rus tillarining o'zbek tiliga ta'siri masalasi.	Asarlarda qo'llanilishiga qarab arab, fors-tojik tillarining o'zbek tiliga ta'siri masalalari tahlil qilinadi.	2
7	XVII-XIX asr 2-yarmidan keyingi davrda yaratilgan asarlarda dialektlarning o'rni. Jadidchilar yaratgan asarlarning o'zbek adabiy tilidagi o'rni.	Jadidchilik harakati. Jadidlar yaratgan asarlarning til xususiyati	2
8	Tilning takomilida lug'at va grammatik asarlarning o'rni.	Turli davrlarda yaratilgan lug'atlar bilan tanishish	2
Jami:			16

3. Seminar mashg'ulotlari:

№	seminar mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Qadimgi turkiy manbalar, ularning o'rganilish tarixi.	Eng qadimgi davrlarga oid manbalar tahlil qilinadi.	2
2	Qoraxoniylar davri adabiy tilining yuzaga kelish sabablari. Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asari va uning til xususiyatlari	"Devoni lug'otit turk" asari va uning til xususiyatlari haqida yozilgan ilmiy ishlar tahlil qilinadi.	2
3	"Qutadg'u bilig" va "Hibatul-haqoyiq" asarlarining til xususiyatlari.	"Qutadg'u bilig" va "Hibatul-haqoyiq" asarlarining til xususiyatlari o'rganiladi.	2
4	Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asari va uning tili.	Devoni hikmat nodir hikmatlar guldastasi	2
5	"Qisasi Rabg'uziy" asarining til xususiyatlari.	"Qisasi Rabg'uziy" asarining til xususiyatlari o'rganiladi.	2
6	Oltin O'rda adabiy tili yozma yodgorliklari. "Muhabbatnoma" va "Guliston bit-turkiy asarlarining til xususiyatlari	Asarlarda o'g'uz, qarluiq, qipchoq lahjalariga xos so'zlarning qo'llanishi tahlil qilinadi	2
7	O'zbek adabiy tili va uning taraqqiyot bosqichlari	Adabiy til me'yorlari	2
8	Alisher Navoiy - o'zbek adabiy tili asoschisi.	Jonli til, adabiy til	2
9	«Muhokamatul-lug'atayn» asarining adabiy til shakllanishidagi o'rni	Ikki til tahlili	2

10	Alisher Navoiy an'anasini XVI asrda davom ettirilishi.	Bu davrda yaratilgan asarlarning til xususiyatlari tahlil qilinadi.	2
11	"Boburnoma" da turli sohaga oid so'zlarning ishlatilishi.	Boburnoma, Xatti Boburiya	2
12	Muhammad Solihning "Shayboniyнома" asarining til xususiyatlari	Ko'chmanchi o'zbeklar	2
13	Abulg'oziy Bahodirxon asarlarining tili	"Shajarayi-turk" va "Shajarayi tarokima" asarlaridagi lisoniy jihatlar haqida bahs etiladi.	2
14	Publitsistik uslubning shakllanishi O'zbek ma'rifatparvarlarning adabiy til rivojiga qo'shgan hissasi	Publitsistik uslubning shakllanishi va o'zbek ma'rifatparvarlarning adabiy til rivojiga qo'shgan hissasi haqida bahs etiladi.	2
15	Tilning takomilida lug'at va grammatik asarlarning o'rni.	Lug'at	2
Jami:			30

4. Mustaqil ta'lim ishlari

Talaba mustaqil ishini asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanadi:

- Fannig ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- Amaliyot mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- Ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- Masalalar yechimlari va grafiklari orasidagi bog'liqliklarni tushuna bilish;
- Amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash;
- Amaliy mazmundagi nstandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash;
- Uy vazifalarini bajarish va h.k.

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	O'quv mashg'ulot turi nomi	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Kirish. Qadimgi turkiy til manbalari, ularning davrlashtirishi bilan bog'liq masalalar	ma'ruza	Qadimgi turkiy til manbalari, ularning davrlashtirishi bilan bog'liq masalalar	10

			o'rganiladi.	
2	Eski o'zbek tilining fonetik qurilishiga doir manbalar bilan tanishish	seminar	Eski o'zbek tilining fonetik qurilishiga doir manbalar bilan tanishiladi	10
3	Eski o'zbek tilining grammatik qurilishiga doir manbalar bilan tanishish	amaliy	Eski o'zbek tilining grammatik qurilishiga doir manbalar bilan tanishiladi.	10
4	O'rxun-Enasoy yozuvi bitiktoshlarining har biri ustida alohida-alohida maxsus kuzatish olib borish; matnning asli, transkripsiyasi, mazmunini muqoyasa qilish	ma'ruza	'rxun-Enasoy yozuvi bitiktoshlarining har biri ustida alohida-alohida maxsus kuzatish olib borish; matnning asli, transkripsiyasi, mazmunini muqoyasa qilinishi	10
5	Matnlarni turkumlar, so'z yasash va gap turlari nuqtai nazaridan tahlil qilish.	seminar	Matnlarni turkumlar, so'z yasash va gap turlari nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.	10
6	Tarixiy lug'atlar va lug'atshunoslik masalalari	amaliy	Tarixiy lug'atlar va lug'atshunoslik masalalari o'rganiladi.	10
7	Yozma manbalar tili lug'at qatlami izohiga doir ilmiy manbalar bilan tanishish	ma'ruza	Yozma manbalar tili lug'at qatlami izohiga doir ilmiy manbalar bilan tanishiladi.	10
8	Lug'at va grammatik asarlar ustida ishlash	ma'ruza	Lug'at va grammatik asarlar o'rganiladi.02 pikthjm	10
9	Uslablarning shakllanishi va taraqqiyoti aks etgan manbalar	seminar	Uslablarning shakllanishi va taraqqiyoti aks etgan manbalar	10

o'rganish		taraqqiyoti aks etgan manbalar bilan o'rganiladi.	Jami: 90 s.

7. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Абдурахмонов Ф., Шукров Ш., Махмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2008.
2. Abdushukurov B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2019.
3. Abdushukurov B. O'zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2020.
4. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. – Toshkent, 2009.
5. Abdushukurov B. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2021.

Qo'shimcha adabiyotlar


1. Karimov I.A. Yulsak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга курашимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони (Халқ сўзи. 2017 йил, 8 февраль).
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизimini янада ривожлантириш чора – талбирлари” тўғрисида (Халқ сўзи 2017 йил, 21 апрель)
7. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Тошкент. Ўқитувчи. 1982
8. Abdushukurov B. Qisasi Rabg'uzi leksikasi. – Toshkent: Akademiya, 2008.

9. Айдаров Г. Язык орхонских памятников древнетюркской письменности VIII века. Ата-Ата, 1971.
10. Абдурахмонов Ф. Рустамов А. Алишер Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент, 1981.
11. Абдурахмонов Ф. Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент, 1973.
12. Баскаков Н. Тюркские языки. – Москва, 1960.
13. Батманов И. Язык Енисейских памятников древнетюркской письменности. Фрунзе, 1959.
14. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент, 1985.
15. Дадабоев Х. Тарихий харбий терминлар. – Тошкент: Университет, 2008.
16. Дадабоев Х., Хамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи (XIV аср ями- XX аср боши). – Тошкент: Фан, 2007.
17. Жуманиёзов Р. Эски ўзбек ёзуви. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989.
18. Исхоков Ф. Эски ўзбек тили ва ёзуви. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
19. Кононов А. Грамматика языка тюркских рунических памятников VII-IX вв.. – Ленинград, 1980.
20. Махмудов К. XIII – XIV туркий ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. – Тошкент: Фан, 1990.
21. Мухаммадиева Д. “Бобурнома” туркча таржимасидаги паремияларнинг киёсий талки. – Тошкент, 2021.
22. Рашидова Н. Функционально-семантический анализ арабизмов системы образования Узбекистана. – Ташкент, 2022.
23. Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихининг илк даврлари. – Тошкент: Фафур Гулом, 2004.
24. Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. – Тошкент, 1965.
25. Холманова З. “Бобурнома” лексикаси. – Тошкент, 2007.
26. Xolmanova Z. Boburnoma – til qomusi. – Tashkent, 2021.
27. XIII-XIV асрлар туркий адабий ёдгорликлар тили. Морфология. – Тошкент, 1986.
28. XV-XIX асрлар ўзбек тили морфологияси. – Тошкент, 1990.
29. Фазылов Э. Будапештская рукопись «Гуль и Навруз» Люффи. - Т., 2006.
30. Turdibekov M. Shajarayi turk onomastikasi. – Tashkent: Nodirabegim nashriyoti, 2020

Internet saytlari

1. www. literature.uz.
2. <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>.
3. <http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>.
4. <http://www.utpa.edu/faculty/mglazer/Theory/structuralism.htm>.
5. http://www.eng.fju.edu.tw/Literary_Criticism/structuralism.

6. www.cauzmu.uz.
7. www.natl.uz.

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2020-yil 7-dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “O'zbek tili tarixi” fani dasturi asosida tayyorlangan.
Fanning ishchi o'quv dasturi ToshDO-TAU Kengashning 2022-yil “ ” dagi _____-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.
“O'zbek tilshunosligi” kafedrasini mudiri, f.f.d., prof. Z.Xolmanova  (imzo)
Tuzuvchi: M.Turdibekov – ToshDO-TAU, O'zbek filologiyasi fakulteti “O'zbek tilshunosligi” kafedrasini dotsenti v.b. filologiya fanlari nomzodi